

Davlyatova Gulnora Muxammadjonovna -
Farg'ona politexnika instituti, i.f.n., dotsent

RESURSLARDAN TEJAMKORLIK BILAN FOYDALANISH DARAJASINI
BAHOLASH MASALALARI

Annotatsiya. Maqola tejamkorlikni ta'minlash masalalariga qaratilgan. Iqtisodiy resurslardan foydalanishda tejamkorlikni ta'minlash masalasining muhim ahamiyatga ega ekanligi haqidagi fikrlar bayon etilgan. Aniq korxona misolida material resurslardan foydalanish darajasiga baho berilgan holda ularning korxona pirovard natijalariga ta'siri yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: tejamkorlik, vaqt ni tejash, resurslar, iqtisodiy samaradorlik, sarf me'yori, material resurs

Davlyatova Gulnara Muxhammadxonovna -
Ferganskiy politeknicheskiy institut k.e.n., dozent

ВОПРОСЫ ОЦЕНКИ УРОВНЯ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ РЕСУРСОВ

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы экономического использования ресурсов предприятия. В качестве примера приводится конкретное предприятие, в котором оценивается уровень использования материальных ресурсов и подчеркивается их влияние на конечный результат деятельности предприятия.

Ключевые слова: экономия, экономия времени, ресурсов, рентабельность, норма расхода, материальный ресурс

Davlyatova Gulnara Mukhammadjonovna -
Fergana Polytechnic Institute, candidate of economic
sciences, Associate professor

ISSUES OF ASSESSING THE LEVEL OF EFFECTIVE USE OF RESOURCES

Annotation. The article deals with the issues of economical utilization of resources of enterprise. As an example, the level of use of material resources of a specific enterprise is assessed and their impact on the final results of the enterprise is emphasized.

Key words: economy, saving time and resources, profitability, consumption rate, material resource.

Kirish. Iqtisodiy sohada islohatlarni yanada chuqurlashtirish va erkinlashtirish borasida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli farmoniga ko'ra 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi" dasturi ishlab chiqilgan bo'lib, strategiyaning 136-bandida "sanoat tarmoqlaridagi yirik korxonalarda ishlab chiqarilayotgan maxsulot larning tannarxini o'rtacha 8 foizga qisqartirish va raqobatdoshligini oshirishni nazarda tutuvchi kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish. Shu jumladan, ma'nан va jismonan eskirgan uskunalarini yangilash hamda modernizatsiya qilish, ishlab chiqarishda energiya samaradorligini oshirish, texnologik jarayonlarni optimallashtirish"^[7] vazifasi belgilangan bo'lib ushbu vazifani ijobiy hal qilish ishlab chiqarish korxonalari uchun ahamiyatlidir. Maxsulot tannarxini kamaytirishning asosiy yo'llaridan biri unga sarflangan resurslardan oqilona foydalanish bo'lib hisoblanadi.

Mamlakatimizda o'tkazilayotgan iqtisodiy islohotlar bilan bog'liq ijtimoiy ishlab chiqarish va resurslar iste'moli jarayonini tashkil etish usullarini bozor iqtisodiyoti talablariga muvofiqlashtirish dolzarb vazifaga aylandi. Ayniqsa, mavjud iqtisodiy resurslardan tejamkorlik bilan foydalanish muhim

yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Zero, tadqiqotchilarning fikriga ko'ra, mehnat buyumlariga sarflanadigan xarajatlarni atigi 1 foizga qisqartirish orqali iqtisodiy samaraning milliardlab so'mga oshishiga erishish mumkin.

Tejamkorlik muammosining tobora dolzarb ahamiyat kasb etib borishi sayyoramizdagi tabiiy resurslar zaxirasining kamayib borishi bilan ham izoxlanadi. Jumladan, insoniyat 2500 yilga kelib, barcha metall zaxiralarini sarflab bo'lishi bashorat qilinib, bunda temir rudasi 250 yilga, alyuminiy 570, mis 29, rux 23, qo'rg'oshin 19 yilga yetishi taxmin qilinmoqda. Amalda hozir yashayotgan avlod ham ishlab chiqarishda qo'rg'oshin, ruh, oltin, kumush, platina, nikel, volfram, misdan foydalanish muammosiga duch kelmoqda^[1].

Yaqin yuz yil ichida ishlab chiqarishni energoresurslar: neft, gaz, ko'mir bilan ta'minlash muammosi ham alohida muammo bo'lib qolishi extimoldan holi emas^[1].

Ilmiy adabiyotlar tahlili. Resurs turlari va ulardan samarali foydalanish masalalari bo'yicha xorijlik olimlarning fikr-mulohazalari atroficha o'r-ganilgan. Iqtisodchi olim A. Baygulova o'z ishlarini resurlardan samarali foydalanishga tasir etuvchi omillarni va resurslardan tejamli foydalanishni ifo-

dalovchi ko'rsatkichlar tizimini yoritib berishga qaratgan.

O'zbekistonda taniqli olimlarimiz Sh.Shodmonov va U. G'afurovning ilmiy tadqiqot ishlarida resurlar turlari va ularni tejab-tergab ishlash masalalari ham o'rganilgan bo'lib, xususan, ularning fikricha "cheklangan iqtisodiy resurslardan oqilona foydalanib, aholining to'xtovsiz o'sib boruvchi ehtiyojlarini qondirish maqsadiga erishish, resurslar va maxsulot larni to'g'ri taqsimlash yo'llarini topish iqtisodiyotning asosiy mazmunini tashkil etadi" deb ta'kidlangan [2].

Asosiy qism. Ma'lumki, iqtisodiy nazariyada iqtisodiy tizimlar ishlab chiqaruvchi kuchlarniig rivojlanish darajasi bilan bog'liq holda o'rganiladi. Iqtisodiy tizimlar turlicha bo'lishiga qaramay, ularning barchasida tejamkorlik iqtisodiyotniig asosiy masalasi bo'lib, u vaqt o'tishi bilan tobora kuchliroq ahamiyat kasb etib boradi. Chunki, insoniyat extiyojlarining o'sib borishi natijasida ularni qondirish uchun yaroqdi bo'lgan iqtisodiy, ayniqsa tabiiy resurslarning nisbatan kamayib borishi ro'y beradi. Ayni paytda, fan-texnika taraqqiyoti natijasida resurslardan foydalanishning muqobil yo'l va usullari paydo bo'lib, inson tomonidan yaratilgan resurlardan foydalanish imkoniyatlari kengayib borsada, tabiiy resurslarni takror hosil qilish imkoniyati cheklanganligicha qolaveradi.

Ma'lumki, sobiq rejali iqtisodiyot davrida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning samarali xo'jalik faoliyatini ta'minlaydigan muhim omil sifatida vaqtini tejash qonuniga ko'proq e'tibor qaratildi, qator ilmiy tadqiqotlar ham shu masalaga bag'ishlandi. Lekin hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda vaqtini tejash qonuni bilan bir qatorda "tejamkorlik qonuni" kabi ibora ham ishlatilmoqda. Ushbu qonunlar borasida turlicha qarashlar mavjud. Ayrim iqtisodchilar vaqtini tejash qonuniga ustuvorlik bersalar, boshqalari tejamkorlik qonunining dolzarbligini ta'kidlaydilar. Tejamkorlik qonuni mazmunan vaqtini tejash qonunidan kengroq hisoblanadi. Vaqtini tejash qonuni faqat mehnat jarayoniga tegishli bo'lib, inson iqtisodiy faoliyatini davomida mazkur qonunga amal qilishi talab etiladi. Mehnat sarflari ish vaqtি sarflari birligida ifodalanadi, shunday ekan, mehnatni tejash ish vaqtini tejash demakdir.

Tejamkorlik qonuni esa mehnat jarayonidan kengroq doirani qamrab oladi va inson mehnati singmagan, hali inson qo'li yetmagan tabiiy boyliklar, iqtisodiy resurslarni tejash, atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq munosabatlarni ham o'z ichiga oladi. Tejamkorlik inson faoliyatining barcha jabxalarida, asosan, bevosita mehnat jarayonida, uning mehnat buyumlariga ta'sirida hamda bu jarayonda iqtisodiy resurslarni sarflash va foydalanishda namoyon bo'ladi. Tejamkorlik ayniqsa mehnat jarayonida ko'proq yuz beradi, bunda jonli mehnat sarfini

qisqartirish ko'zda tutiladi. Ma'lumki, sarflangan mehnat miqdori ish vaqtini bilan o'lchanadi va shu sababga ko'ra jonli mehnat sarfini qisqartirish ish vaqtini tejash shakliga ega bo'ladi. Ish vaqtini tejash yaratiladigan moddiy yoki ma'naviy ne'matlar, iste'mol qiyamatlari bir birligidagi jonli mehnat salmog'i qisqartirishda va ish vaqtini yo'qotishlarini kamaytirishda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, tejamkorlik yordamida yo'qotishlarga, mehnat vositalarining qisman yoki to'liq yemirilishiga olib keluvchi turli sabab yoki holatlarni bartaraf qilish yo'li bilan ularda buyumlashgan mehnatni tejash mumkin. Shunday qilib, tejamkorlik natijasida bir vaqtning o'zida ham jonli, ham buyumlashgan mehnatni o'zida mujassamlashtiradigan butun ijtimoiy mehnat sarfi tejaladi. Tejamkorlik vaqtini tejash ob'ektiv iqtisodiy qonunining namoyon bo'lish shaklidir. Chunki vaqtini tejash qonuni umumiqtisodiy qonunlar tizimiga kirsa, tejamkorlik ham barcha iqtisodiy tizimlarda namoyon bo'ladi.

Iqtisodiyotda mehnat sarfini tejash - bu vaqtini tejashdir. Tejamkorlikning vaqtini tejashda ifodalangan uning barcha shakllaridagi ichki aloqalari insoniyat taraqqiyoti asosida yotadi, chunki alohida individ uchun ham jamiyat uchun ham uning rivojlanishining, iste'moli va faoliyatining har tomonlamaligi vaqtning jamg'arilishiga bog'liq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, jamiyat bug'doy, go'sht va hokazolarni ishlab chiqarishga qanchalik kam vaqt sarflasa, boshqa ne'matlarni ishlab chiqarishni kengaytirishga yoki ma'naviyat olamini, madaniyatni rivojlantirishga bo'sh vaqt imkoniyatlari shunchalik ko'proq ochiladi. Vaqtini tejash, demakki, mehnatni ham tejashning asosiy omil va manbalari tovar ishlab chiyarish soxasadir. Tejamkorlikka erishishni ta'minlovchi omillar mehnat unumdarligining o'sishida o'z ifodasini topadi va u vaqtini tejashning asosiy unsuri hisoblanadi.

Mehnat unumdarligi mehnatning tejalishini ta'minlaydi, chunki u o'sgan holda maxsulot ishlab chiqarishga sarflanadigan mehnat miqdorining pasayishi kuzatiladi yoki aksincha, bir birlik mehnat xarajatlarida maxsulot ishlab chiqarishning o'sishini o'zida mujassamlashtiradi. Bunda jonli yoki buyumlashgan yoxud jami mehnatning tejalishi yuz beradi. Hozirgi zamon ishlab chiqaruvchi kuchlarining amal qilish jarayoni uchun jonli va buyumlashgan mehnat nisbatidagi o'zgarishlar bilan boruvchi mehnat unumdarligining o'sishi xosdir. Bunda jonli mehnat salmog'i kamayadi, buyumlashgan mehnat salmog'i nisbatan o'sadi, bir birlik maxsulotda mujassamlashgan mehnatning umumiy miqdori esa kamayadi. Jonli mehnatning ko'proq unumli mehnatga aylanishining bunday qonuniyati ishchi tomonidan mehnat qurollari, xom ashyo, energiya, materialarning katta miqdorda qo'llanishi natijasida amal qiladi. Jonli mehnat sarflarining ular tomonidan

harakatga keltiriladigan buyumlashgan mehnatga nisbatan kamayishi ishlab chiqarishning rivojlanishi va mehnat sarfini tejashta shaxsiy omil rolining kamayishini bildirmaydi.

Fikrimizcha, tejamli foydalanish tushunchasining barcha resurslarga nisbatan ishlatilishi mazmunan resurslarning isrofgarchilikka yo'l qo'ymay, ma'lum me'yorlarga muvofiq holda ishlatilishini anglatadi. Resurslardan tejamli foydalanish, odatda, oqilona va samarali foydalanishdan farqli o'laroq, bevosita ishlab chiqarish jarayoni bilan cheklanmay, balki butun takror ishlab chiqarish bosqichlarini qamrab oladi. Umuman olganda, resurslarni tejasht maxsulot birligiga ketayotgan xarajatlarning pasayishi, resurslardan foydalanish darajasining ijobiy tomonga o'sishi sifatida aniqlanadi. Bundan tashqari, "resurslarni tejasht" tushunchasi ularning samarali iste'moli natijasida olinadigan foyda, natijani ham taqozo etadi. Resurslar tejamkorligiga ikki tomonlama, ya'ni mutlaq va nisbiy tejamkorlik nuqtai-nazaridan yondashish mumkin. Mutlaq tejamkorlik maxsulotni ishlab chiqarish va iste'mol qilish jarayonida uning tarkibiga kiruvchi jonli va buyumlashgan mehnat miqdorining kamayishi darajasini tavsiflaydi. Biroq, bunda ishlab chiqarilgan maxsulotning naflilik darjasasi va qiymati o'zgarmaydi. Nisbiy tejamkorlik tushunchasi ostida jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlari nisbatan barqaror bo'lган sharoitda ishlab chiqarishning foydali natijalarini, ya'ni qiymat hajmining o'sishini ta'minlash jarayonini tushunish zarur. Shuning uchun resurslar tejamkorligi muammosining hal qilinishi iqtisodiyotning samarali rivojlanishi uchun juda muhimdir.

Tejamkorlik darajasini baholash nisbiy tarzda amalga oshiriladi. Agar jamiyat yagona individdan iborat bo'lsa, uning hatti-harakatini tejamkorlik nuqtai-nazaridan baxolash mumkin bo'lmas edi. Shunga ko'ra, tejamkorlik - jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining muayyan darajasida barcha re-

surslardan tejamli foydalanish bo'yicha iqtisodiy munosabat bo'lib, ishlab chiqarish samaradorligini ta'minlashning asosiy omili hisoblanadi. Iqtisodiy samaradorlik ham "xarajatlar - ishlab chiqarish" muammosini o'z ichiga oladi. Aniqroq aytganda, iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish jarayonida qo'llaniladigan taqchil resurs birliklari yig'indisi va iste'mol tovarlari yig'indisi o'rtasidagi aloqani tafsiflaydi[6]. Sarflangan xarajatlar hajmidan olingan maxsulot ning ortiqligi samaradorlikning o'sishini anglatadi.

Iqtisodiyotning real sektorida faoliyat ko'rsatayotgan har qanday korxonada ishlab chiqarishning samaradorligini resurslar tejamkorligi asosida ta'minlash, uni rivojlanishining intensiv yo'liga o'tkazish orqali maxsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish hozirgi davrning eng dolzarb vazifaliga aylangan.

Sanoat korxonalarining ishlab chiqarish jarayonlarining natijasi hamda samaradorligi ularning material resurslar bilan ta'minlanganligiga ham bevosita bog'liqdir. Chunki korxonalarda yaratilayotgan maxsulot larning hajmi, sifati ulardagি material resurslarining yetarli bo'lishi hamda ulardagи tejamli foydalanishni taqozo etadi[5]. Korxonada material resurslardan foydalanishni baholash uchun uning faoliyatini chuqur va har tamonlama tahlil etishning ahamiyati juda kattadir. Ushbu maqsadda tadqiqot ob'ekti sifatida olingan poyafzal ishlab chiqaruvchi kichik korxonada material resurslardan foydalanish darajasiga baho berildi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida olingan korxona moddiy sig'imi katta bo'lgan tarmoqlar jumlasiga kirganligi tufayli ularda materiallardan foydalanishni tahlil etish asosida materiallarning iqtisod qilishning ichki imkoniyatlarini aniqlashning ahamiyati kattadir[2].

Tahlil maqsadida quyidagi jadval ma'lumotlaridan foydalanildi.

1-jadval

Korxonada material resurslardan foydalanishning tahlili

№	Ko'rsatkichlar	O'tgan yil	Hisobot yili	Farqi	
				Mutlaq(+-)	Foizda
1	Maxsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi, m.s.	1134087,9	918539,7	-2155482	-19,0
2	Material xarajati, m.s.	620346	510509	-109837	-17,7
3	Material qaytmi so'm(1:2)	1,828	1,799	-0,029	-1,6
4	Material sig'imi, so'm (2:1)	0,547	0,556	+0,009	+1,6
5	Maxsulot tannarxi, m.s.	1071909	869283,5	-202625,5	-18,91
6	Material xarajatlarining maxsulot tannarxidagi ulushi (2:5)	0,578	0,578	+0,009	+1,6

Yuqoridagi jadval ma'lumotlariga ko'ra hisobot yilda korxonada material resurslardan foydalanish darjasasi bir muncha yomonlashgan. O'tgan yilda maxsulotning material qaytmi, ya'ni, 1 so'mlik moddiy harajatga to'g'ri kelgan maxsulot 1,828 so'mni tashkil etgan bo'lsa, hisobot yilda bu ko'r-

satkich 1,799 so'mga teng bo'lib, 0,029 so'mga (1,799-1,828) yoki 1,6 %ga kamaytirilgan. Shu davrda material sig'imi ko'rsatkichi 0,009 so'mga yoki 1,6 %ga oshirib yuborilgan.

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan foydalanigan holda materiallarning miqdori va ulardan foydala-

nish darajasining maxsulot hajmining o'zgarishiga ta'siri hisoblanadi.

Maxsulot ishlab chiqarish va sotish hajmi hisobot yilda o'tgan yilga nisbatan 215548,2 ming so'mga kamaygan. Bunga quyidagilar ta'sir ko'rsatgan:

- maxsulot hajmining kamayishiga material sarfining o'zgarishining ta'siri:

$$(510509-620346)*1.828 = -200752 \text{ ming so'm}$$

- maxsulot hajmining o'zgarishiga material qaytimi farqining ta'siri:

$$(1,799-1,828)*510509=4814 \text{ ming so'm}$$

- ikkala omilning ta'siri

$$-200752+(-14804)=215556 \text{ ming so'm}$$

Ushbu kattalik hisobot yili va o'tgan yildagi maxsulot hajmlari orasidagi farqqa deyarli teng. Demak, korxonada hisobot yilda maxsulot ishlab chiqarish va sotish hajmiga material harajatlar va materiallardan foydalanish darajasining ta'siri salbiy bo'lgan. Tahlilni korxonada material sarfi me'yorlariga rioya qilish holatini baholashda davom ettirish mumkin bo'ladi.

Ma'lumki, korxonalarda material harajatlar ular sarfining o'rnatilgan me'yorlariga asosan amalga oshirilishi lozim. Material sarfi me'yori deganda 1 birlik maxsulot (ish, xizmat) ga ketadigan material absolyut sarfining maksimal yo'l qo'yib bo'ladigan kattaligi tushuniladi.

Fikrimizcha, maxsulot yaratishda material sarfi me'yorlariga amal qilinmasa, ya'ni materialning haqiqiy sarfi me'yordan ortiqcha bo'lsa, max-

sulot ishlab chiqarish hajmi materiallar yetishmasliga tufayli kamayadi va maxsulot tannarxi oshib ketadi. Materiallar haqiqiy sarfi me'yordagidan kichik bo'lsa, tejalgan materiallardan qo'shimcha hajmda maxsulot ishlab chiqarish imkoniyati yaratiladi.

Yuqoridagi o'zgarishlarni quyidagicha aniqlash mumkin:

1. Maxsulot birligi uchun belgilangan material sarfi me'yoriy o'zgarish haqiqiy sarfi bilan solishtiriladi.

2. Bir maxsulotdan olingan iqtisod yoki ortiqcha harajat haqiqatda ishlab chiqarilgan maxsulot hajmiga ko'paytirilib, umumiyl iqtisod yoki ortiqcha sarf hisoblanadi.

3. Materialni sarflashda sodir bo'lgan umumiyl iqtisod yoki ortiqcha harajat material sarfi me'yoricha taqsimlanadi.

Shu tariqa umumiyl iqtisod tufayli qancha qo'shimcha maxsulot ishlab chiqarilishi yoki ortiqcha sarf tufayli qancha maxsulot yo'qotilganini xisoblandi.

Tadqiqot ob'ekti sifatida olingan korxonada material sarfi me'yorlarini bajarilishini tahlil qilish uchun bir juft erkaklar tuflisi tannarxi kalkulyat-siyasidagi asosiy va yordamchi materiallar sarfini yoyilmasi ma'lumotlaridan foydalanildi.

Oyoq kiyimi tannarxida charm materiallarning ulushi salmog'li bo'lgani sababli tahlil ushbu material sarfi bo'yicha amalga oshirildi.

2-jadval

Materiallardan sarf me'yorlari bo'yicha foydalanimishini tahlil qilish

№	Ko'rsatkichlar nomi	Kattaligi
1	1 juft tufliga sarf qilinadigan charm materiali kv.dts Me'yor bo'yicha Haqiqatda Farqi	19,20 19,76 +0,56
2	Haqiqatda ishlab chiqarilgan maxsulot hajmi, juft poyafzal	10000
3	Iqtisod (-), ortiqcha sarf(+), maxsulot umumiyl hajmi bo'yicha kv dts	+5600 (+0,56*10000)
4	Kam ishlab chiqarilgan maxsulot miqdor juft	291 (5600:19,2)

Yuqoridagi jadval ma'lumotlaridan ko'rinishicha, korxonada bir juft erkaklar poyafzaliga sarflanishi kerak bo'lgan charm materialining o'rtacha me'yori 19,20 kv dts bo'lgani holda haqiqatda 19,76 kv dts sarflangan. Oqibatda bir juft oyoq kiyimligiga me'yordagdan 0,56 kv dts ortiqcha sarf qilinib, korxona bo'yicha umumiyl ortiqcha harajat 5600 kv dts tashkil etgan. Buning natijasida oyoq kiyimi ishlab chiqarish hajmi 291 juftga yoki qiymat ifodasida 25027 ming so'mga (291*86) kamaytirib yuborilgan (bunda 86 ming so'm -1juft oyoq kiyimining o'rtacha tannarxi). Bundan tashqari 1 kv dts charmning narxi 6200 so'mni tashkil etishini hisobga olgan holda bir juft oyoq kiyimining tannarxi $0,56*6200=3472$ so'mga oshirilgan. Natijada ishlab chiqarilgan barcha maxsulotlar tannarxi

$3472*10000=34720$ ming so'mga oshirib yuborilgan. Demak, korxonada material resurslaridan foydalanish darajasi ham o'tgan yildagiga nisbatan ancha pasaygan. Korxonada resurslar tejamkorligiga bo'lgan etiborni tubdan yaxshilash kerakligi korxona faoliyati tahlilidan yaqqol ko'rini turibdi.

Natijalar yoki yakuniy qism. Fikrimizcha, tadqiqot ob'ekti sifatida olingan korxonada tejamkorlikni ta'minlashning moddiy resurslardan oqilona foydalanishga bevosita bog'liqligini e'tiborga olib, uning asosiy yo'nalishlari sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

- resurslar tejamkorligini ta'minlashning ma'muriy usullaridan iqtisodiy usullariga o'tish;

- resurslar tejamkorligini maqsadli dasturlar asosida tashkil qilish, resurslarni tejash siyosatining

miqdoriy aniq maqsadlarini ishlab chiqish va ularga tashkiliy-texnik chora-tadbirlar, birinchi navbatda FTT yutuqlarini qo'llash asosida erishishni tashkil qilish;

- mehnat intizomini o'stirish;
- barcha turdag'i resurslar tejamkorligini iqtisodiy va ma'naviy jixatdan rag'batlantirish xamda xo'jasizlik va isrofgarchilik uchun javobgarlikni oshirish (bu esa resurslar tejamkorligiga ta'sirchan rag'bat hisoblanadi);
- moddiy resurslardan tejamli foydalanishni rag'batlantirish;
- kadrarning iqtisodiy bilimlarini oshirish, o'qitish, resurslar tejamkorligi soxasidagi ilg'or tajribalarni umumlashtirish va tarqatish.

Ayniqsa, hozirgi vaqtida barcha tarmoq korxonalarida me'yorlashtirish holati iqtisodiyotning rivojlanish talablariga jovob bermaydi. Ilg'or texnika va texnologiyadan foydalanish asosida ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash jarayonida hamma vaqt barcha me'yorlarni almashtirishga yetarli e'tibor berilmayapti. Bu holat ishlab chiqarish samaradorligini ancha kamaytirmoqda. Shuning uchun sanoat korxonalarida me'yorlashtirishni tashkil etish holatini o'rganish va uni yaxshilash imkoniyatlarini aniqlash dolzarb masala bo'lib hisoblanadi. Texnik va ilmiy jihatdan asoslangan me'yorlar tizimini ishlab chiqish asosida mehnat va moddiy resurslardan tejash imkoniyati yaratiladi.

Manba va foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shodmonov Sh., G'afurov U. "Iqtisodiyot nazariyasi" darslik TDIU 2009. 529 b.
2. Sevarakhon Abdullaeva. *Improving of organizational mechanism of leasing.* // Scientific Bulletin of Namangan State University – 2019. Doi <https://uzjournals.edu.uz/cgi/viewcontent.cgi?article=1669&context=namu>
3. Abdullaeva Sevarakhon K.Hasanovna / *Issues of Ensuring Economic Stability in the Textile Industries.* // JournalNX – 2020. VOLUME 6, ISSUE 12 Doi <https://media.neliti.com/media/publications/335549-issues-of-ensuring-economic-stability-in-de5aaaf9.pdf>
4. G.M. Davlyatova, C.X. Abdullaeva. (2019) *Systemic principles and regularities of commercial enterprise as a socio-economic system.* // Journal of Economy and Business., (6-1). p.95. Doi <https://dx.doi.org/10.24411/2411-0450-2019-10827.https://cyberleninka.ru/article/n/18235040>
5. Gafurova F.S., Davlyatova G.M. (2019) *Identification and mobilization of reserves of the rational use of resources as a factor of increasing production efficiency. Problems of modern science and education.*, 12 (145) Part 1. P.52. Doi <https://portal.issn.org/resource/ISSN/2413-4635>
6. To'ychieva O., Ishlab chiqarish samaradorligini oshirish masalalari. Namangan Davlat Universitetining Ilmiy axborotnomasi 2019. 8-soni
7. 2017-2021 yillarda O'zbekiston respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi. <https://lex.uz/docs/>

**Allaeva Gulchexra Jalgasovna –
PhD, Toshkent davlat texnika universiteti "Sanoat
iqtisodiyoti va menejmenti" kafedrasi dotsenti**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI YOQILGI-ENERGETIKA KOMPLEksi BARKAROR RIVOJLANISHNI METODOLOGIYASI

Annotatsiya. Maqolada O'zbekiston Respublikasi yoqilg'i-energetika kompleksi tarmoqlarining barqaror rivojlanishining asosiy omillari rasmiylashtirildi. Energetika korxonalarini barqaror rivojlanantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish usullari taklif qilingan. Yoqilg'i-energetika kompleksi korxonalarini ishlab chiqarish jarayonidagi roliga muvofiq ko'rsatkichlarning barcha guruhlarini hisobga olgan holda barqaror rivojlanish metodikasi taklif etildi. Respublikaning yoqilg'i-energetika kompleksini samarali rivojlanantirish va isloh qilish strategiyasi bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so'zlar: barqaror rivojlanish, raqamli iqtisodiyot, atom energetikasi, qayta tiklanadigan energiya manbalari, energiya tejash, energiya samaradorligi, yoqilg'i-energetika kompleksi.

**Аллаева Гульчехра Жалгасовна -
PhD, доцент кафедры «Экономика и
менеджмент промышленности» ТашГТУ**

МЕТОДОЛОГИЯ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ ТОПЛИВНО- ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО КОМПЛЕКСА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Аннотация. В статье рассмотрены основные факторы устойчивого развития отраслей топливно-энергетического комплекса Республики Узбекистан. Предложены методы и пути совершенствования организационно-экономического механизма устойчивого развития предприятий энергетики. Предложена методология устойчивого развития предприятий топливно-энергетического комплекса, учитывающая все группы показателей в соответствии с их ролью в процессе производства. Разработаны научно-обоснованные предложения по стратегии эффективного развития и реформированию топливно-энергетического комплекса республики.

Ключевые слова: устойчивое развитие, цифровая экономика, атомная энергетика, возобновляемые источники энергии, энергосбережение, энергоэффективность, топливно-энергетический комплекс.